

ZAMONAVIY YAPONIYADA YER, SUV VA TABIIY RESURLAR BOSHQARUVI: AN'ANA VA INNOVATSIYA UYG'UNLIGI

G'ulomova Mohichehra

BuxDU magistranti

Ilmiy rahbar: Yuldosheva Bibirajab

BuxDU dotsenti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada zamonaviy Yaponiya iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillari, xususan qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlari rivojida yer va suv resurslarining o'rni o'rganiladi. Yaponiyaning geografik holati, tabiiy resurslarining cheklanganligi va yer-suv manbalaridan samarali foydalanish strategiyalari tahlil etilgan. Qishloq xo'jaligida sholi yetishtirishning ustunligi, yer resurslarining intensiv ishlatilishi, o'rmon xo'jaligi va dengiz resurslaridan foydalanish masalalari yoritilgan. Shuningdek, sanoatning, xususan metallurgiya, axborot texnologiyalari va energetika sohalarining rivojlanish jarayonlari, innovatsiyalar va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish tajribasi ko'rib chiqilgan. Abenomika siyosati va uning iqtisodiy islohotlarga ta'siri ham tahlil qilingan. Tadqiqot davomida Yaponiya tajribasining yer va suv resurslarini oqilona boshqarishdagi o'rni hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati alohida ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Yaponiya, yer resurslari, suv resurslari, qishloq xo'jaligi, sholi yetishtirish, o'rmon xo'jaligi, baliq ovlash, sanoat rivoji, Abenomika, iqtisodiy islohotlar, innovatsion texnologiyalar, energiya tejash, metallurgiya sanoati, yadro energetikasi, tabiiy ofatlar, Fukusima inqirozi.

ABSTRACT

This article examines the key factors of Japan's modern economic development, focusing particularly on the role of land and water resources in the advancement of agriculture and industry. It analyzes Japan's geographical position, its limited natural resources, and the strategies for the efficient use of land and water. The study highlights the dominance of rice cultivation in agriculture, intensive land use practices, forestry management, and sustainable utilization of marine resources. Industrial development processes, including metallurgy, information technologies, and energy sectors, are reviewed, with a special emphasis on innovation and energy-saving technologies. The economic reforms under "Abenomics" and their impact on Japan's economy are also discussed. Particular attention is given to Japan's experience in the rational management of natural resources and its importance in achieving economic stability.

Key words: *Japan, land resources, water resources, agriculture, rice cultivation, forestry, fishing industry, industrial development, Abenomics, economic reforms, innovative technologies, energy saving, metallurgical industry, nuclear energy, natural disasters, Fukushima disaster.*

KIRISH

Yer va suv resurslari har qanday jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti uchun asosiy tayanch omil hisoblanadi. Bu jihat, ayniqsa, tabiiy resurslarga nisbatan ehtiyotkorlik va aqlli boshqaruvni ustuvor qoʻygan davlatlarda yaqqol namoyon boʻladi. Zamonaviy Yaponiyaning iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti ham, avvalo, uning yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, anʼanaviy qadriyatlar va zamonaviy innovatsiyalarni uygʻun holda rivojlantirish siyosati bilan chambarchas bogʻliqdir. Tabiiy geografik sharoiti, yer va suv resurslarining cheklanganligi Yaponiya uchun doimo dolzarb muammolar qatorida boʻlib kelgan. Shu sababli mamlakatda qadimdan yerning har bir qarichi va suvning har bir tomchisi alohida qadrlangan.

Bugungi kunda Yaponiya yer va suv resurslarini boshqarish, qishloq xoʻjaligi, sanoat, energetika va ekologiya sohalarida anʼana va innovatsiyalar uygʻunligiga asoslangan noyob tajriba toʻplagan. Guruch ekishdan boshlab yadro energetikasi va axborot texnologiyalarigacha boʻlgan barcha sohalarda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish tamoyili ustuvor oʻrinda turadi. Shu jihatdan, Yaponiya tajribasini oʻrganish va tahlil qilish, bugungi globallashuv va ekologik barqarorlik talab qilinayotgan davrda ayniqsa muhimdir.

Ushbu maqolada zamonaviy Yaponiyada yer va suv resurslaridan foydalanish masalalari, qishloq xoʻjaligi va sanoat siyosatidagi oʻzgarishlar, energetik xavfsizlik choralari va ekologik siyosatdagi innovatsion yondashuvlar ilmiy tahlil qilinadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yaponiya — Sharqiy Osiyoning Tinch okeani sohilida joylashgan, tarixan qadimiy madaniyati va zamonaviy innovatsiyalari bilan mashhur davlatdir. Mamlakat geografik jihatdan Tinch okeanining gʻarbiy qismidagi orollar tizimida joylashgan boʻlib, shimolda Oxota dengizi, sharqda va janubda Tinch okeani, janubi-gʻarbda esa Janubiy Xitoy dengizi, gʻarbda esa Korea qoʻltigʻi va Yapon dengizi suvlari bilan oʻralgan.

Yaponiyaning tabiiy relyefi nihoyatda murakkab boʻlib, hududining 75 foizdan ortiq qismini togʻ va qir-adirlar tashkil etadi. Ayni vaqtda, mamlakatda faol va soʻngan vulqonlar mavjud boʻlib, ular orasida eng mashhuri va eng baland choʻqqisi Fudziyama vulqonidir. Xonsyu orolida joylashgan ushbu vulqon 3776 metr

balandlikda joylashgan bo'lib, Yaponiya tabiatining timsoli sifatida qaraladi. Yaponiya yer silkinishlariga juda serob bo'lib, har yili yuzlab yer silkinishlar ro'yxatga olinadi. Bundan tashqari, mamlakat Tinch okeani qirg'oqlarida vaqti-vaqti bilan kuchli tsunami to'lqinlariga duch keladi.

Tog' tizmalari Saxalin oroli va Kuril orollaridagi tog'larning tabiiy davomi sifatida shimoldan janubga cho'zilgan. Pasttekisliklar esa asosan qirg'oq bo'ylari va Toxio qo'ltig'i atrofidagi Kanto pasttekisligida to'plangan bo'lib, ular umumiy yer maydonining atigi 15 foizini tashkil etadi.

Yer va suv resurslarining cheklanganligi Yaponiyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Yer maydonining cheklanganligi va tabiiy xavf-xatarlarning mavjudligi natijasida Yaponiya iqtisodiy faoliyatini yuqori texnologiyali sanoat, qishloq xo'jaligi va innovatsiyalar asosiga qurdi.

Akademik N.I.Vavilov 1929-yilda Yaponiyaga qilgan ilmiy safaridan so'ng, o'zining mashhur "ПЯТЬ КОНТИНЕНТОВ" asarida shunday ta'kidlagan edi: "Yaponiyada dehqonchilik o'zining beqiyos intensivligi bilan kishini hayratga soladi. Markaziy va Janubiy Yaponiyada har bir qarich yerdan maqsadli foydalaniladi" [1:72]. Bu fikr Yaponiyada yer resurslariga bo'lgan o'ziga xos e'tibor va har bir maydonni unumli ishlatish tamoyilining nechog'lik kuchli ekanini ko'rsatadi.

Yaponiya iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim xususiyatlaridan biri — uning xalqaro iqtisodiy aloqalari nihoyatda rivojlanganligidadir. Mamlakat o'zining tabiiy boyliklar va xomashyolar bilan sust ta'minlangani tufayli resurslarning 90 foizdan ortig'ini chetdan import qiladi. Shu bilan birga, Yaponiya eksportga tayangan iqtisodiy modelni shakllantirgan bo'lib, bugungi kunda dunyodagi eng faol va ijobiy savdo balansiga ega davlatlardan biri sifatida tan olingan.

XIX asr oxiriga kelib, Yaponiyada qishloq xo'jaligi, dehqonchilik va baliq ovlash sanoati asosiy iqtisodiy tarmoqlarga aylandi. Biroq kon sanoati va qishloq xo'jaligi umumiy yalpi milliy mahsulotning atigi 1,3 foizini tashkil etar edi. Dastlab qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi va baliqchilik iqtisodiyotda ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa-da, XIX asr oxiriga kelib bu tarmoqlar mamlakat ishchi kuchining 80 foizdan ortig'ini qamrab oldi. Keyinchalik esa qishloq xo'jaligi, ayniqsa sholi yetishtirish sohasi, mamlakatdagi eng yirik bandlik sektori (taxminan 50%) sifatida shakllandi.

1980-yillardan so'ng, dehqonlarning 85,5 foizi qishloq xo'jaligi bilan bir qatorda boshqa sohalarda ham faoliyat yurita boshladi. Shunga qaramay, qishloq xo'jaligi hali ham milliy iqtisodiyotda muhim o'rin tutmoqda. Masalan, 2018-yilda Yaponiyada 9,7 million tonna guruch yetishtirilib, mamlakat jahon gurunch ishlab chiqarish reytingida 13-o'rinni egalladi.

Yaponiyada qishloq xo'jaligi yer resurslarining yetishmovchiligi alohida e'tiborga loyiq. Umumiy yer maydonining atigi 13 foizi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan bo'lib, uning ham yarmi sholi ekiladigan sel dalalaridan iborat. Hududlarning bunday cheklanganligi dehqonlarni yerga juda intensiv ishlov berishga majbur etadi. Sabzavotchilik asosan shahar atroflarida rivojlangan bo'lib, bunday yerlarga qishloq xo'jaligi maydonlarining chorak qismi ajratilgan. Qolgan hududlarda texnik ekinlar, yem-xashak uchun o'tlar va tut daraxtlari yetishtiriladi.

Sholi dehqonchiligi bilan bir qatorda, paxta, bug'doy, arpa, shirin kartoshka va dukkaklilar kabi mahsulotlar ham ekiladi. Biroq qishloq xo'jaligi sektori Yaponiya uchun cheklangan resurslar va yer maydonlari sababli global raqobatda ustunlikka erishish imkoniyatini bermaydi.

Shunga qaramay, Yaponiya hukumati sohani har tomonlama qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Qishloq xo'jaligi, bog'dorchilik, ipakchilik, chorvachilik, o'rmonchilik va dengiz hunarmandchiligi mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin egallaydi. Bugungi kunda Yaponiya hududining taxminan 25 million gektari o'rmonlar bilan qoplangan bo'lib, ularning ko'pchiligi kichik dehqonlar va mahalliy aholiga tegishlidir. Yer egalari orasida imperator oilasi, diniy muassasalar va ibodatxonalar ham mavjud.

Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi sohasi "kasal tarmoq" sifatida tavsiflanmoqda, chunki ekin maydonlarining qisqarishi va iqtisodiy cheklovlar ushbu soha daromadining pasayishiga olib kelmoqda. 1990-yilga kelib, Yaponiya o'zining qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini 67 foiz, don va yem-xashak mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojni esa 30 foiz darajasida qoplashga erishgan edi.

2014-yilda esa qishloq xo'jaligi sohasini isloh qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. "Qishloq xo'jaligi yerlari vositalarini boshqarish tashkilotlari" ("nochu chukan kanri kiko") tuzilib, yerlarni yirik fermer xo'jaliklari va korporatsiyalar qo'lga ratsional tarzda to'plash strategiyasi ilgari surildi [2:36-41].

Yaponiyada yer resurslarining katta qismini o'rmonlar tashkil etadi. Mamlakat hududining uchdan ikki qismi o'rmonzorlar bilan qoplangan bo'lib, ularning 40 foizi ekilgan o'rmonlardan iboratdir. O'rmonlarning shakllanishi asosan Tinch okeani urushi davrida qurilish materiallariga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun yo'naltirilgan edi. Biroq Yaponiya iqtisodiyotining jadal rivojlanishi va qurilish texnologiyalaridagi o'zgarishlar natijasida yog'ochdan temir-beton materiallariga o'tildi.

Bu o'zgarishlar natijasida mahalliy yog'och mahsulotlariga bo'lgan talab pasaydi. Narxi arzon import yog'och mahsulotlarining bozorda paydo bo'lishi mahalliy o'rmon xo'jaligi uchun jiddiy raqobat muhitini yaratdi. Hozirgi vaqtda ko'plab ekilgan o'rmonlar zich holda o'sgan bo'lib, ularni yupqatish zarurati yuzaga

kelmoqda. Oʻrmon xoʻjaligi hozirda Yaponiyaning yalpi ichki mahsulotidagi ulushi atigi 0,04 foizni tashkil qiladi.

2015-yil yakunlariga koʻra, Yaponiyada oʻrmon sanoatida umumiy hisobda 20,05 million kub metr yogʻoch ishlab chiqarilgan. Bu koʻrsatkich sanoatning umumiy hajmiga nisbatan past boʻlsa-da, mamlakatning ekologik siyosatida oʻrmon resurslarini asrash va qayta tiklashga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Resurslar taqchilligi Yaponiya hukumatini energiya va xomashyoni tejashga qaratilgan metallurgiya sanoatini rivojlantirishga majbur qildi. Ayniqsa, energiya sarfini kamaytirish va texnologik innovatsiyalarni joriy etish orqali Yaponiya metallurgiya sanoati oʻziga xos strategik ustunlikni yaratdi.

Innovatsion yechimlar korxonalarda elektr energiyasi sarfini uchdan birga qisqartirish imkonini berdi. Bu esa nafaqat alohida kompaniyalar, balki butun sanoat tarmoqlarida samaradorlikni oshirishga xizmat qildi. Urushdan keyingi yillarda Yaponiya hukumatining asosiy strategiyasi mavjud texnologiyalarni modernizatsiya qilish emas, balki eng ilgʻor, zamonaviy texnologiyalarni toʻgʻridan-toʻgʻri joriy etishdan iborat boʻldi. Bu strategiya sanoatning jadal oʻsishini taʼminladi va Yaponiya metallurgiya sanoatini dunyodagi yetakchilardan biriga aylantirdi.

1973-yilga kelib, Yaponiya dunyodagi eng yirik poʻlat ishlab chiqaruvchi davlatga aylandi. U faqat ishlab chiqarish hajmi bilan emas, balki mahsulot sifati bilan ham raqobatchilarini ortda qoldirdi. Har yili 600 million tonnadan ortiq koks va 110 million tonna temir rudasi kabi xomashyolarni import qilgan Yaponiya metallurgiya sanoati global bozorni taʼminlovchi asosiy oʻyinchilardan biri sifatida maydonga chiqdi.

Biroq 1990-yillarning oʻrtalariga kelib, Xitoy va Koreya metallurgiya korxonalarining rivojlanishi Yaponiyaning bu sohadagi yetakchilik mavqeiga jiddiy tahdid soldi. 2011-yilda esa Fukusima-1 atom elektr stansiyasida yuz bergan halokat mamlakat sanoatiga salbiy taʼsir koʻrsatdi. Shunga qaramay, ishlab chiqarishning umumiy pasayishi atigi 2 foiz atrofida boʻlib, Yaponiya sanoatining barqarorligini yana bir bor tasdiqladi.

Shu bilan birga, Yaponiya sanoati innovatsiyalarni oʻzlashtirishda yetakchilikni davom ettirdi. 3D uzatish texnologiyalari, robototexnika, yangi avlod optik tolali va simsiz tarmoqlar, smart-tarmoqlar va bulutli hisoblash tizimlari sanoatning asosiy dvigateli sifatida shakllandi. Infratuzilma rivojlanishi boʻyicha Yaponiya dunyodagi eng ilgʻor davlatlar — Xitoy va AQSh bilan bir safda turadi.

Yaponiya tabiiy resurslarga nihoyatda kambagʻal mamlakatlardan biri boʻlgani sababli, energiya taʼminoti masalasi har doim uning milliy xavfsizligi va iqtisodiy barqarorligi uchun strategik ahamiyat kasb etgan. 1954-yildan boshlab, mamlakatda

yadro energetikasi sohasida izchil tadqiqotlar va dasturlar olib borildi. Bu esa, Yaponiyaning energiyaga bo'lgan qaramligini kamaytirish, iqtisodiyotini mustahkamlash va importga tobe bo'lishdan chiqish maqsadida amalga oshirilgan muhim qadam edi.

Hukumat ushbu yo'nalishda tizimli tarzda harakat qilgan bo'lib, qator qonunlarni qabul qildi va yangi tashkilotlar yaratdi. Natijada, 1966-yilda Buyuk Britaniyadan olib kelingan birinchi tijoriy yadro reaktori muvaffaqiyatli tarzda ishga tushirildi. Bu yadro texnologiyalarining milliy rivojiga zamin yaratdi va Yaponiya o'zining "Tinch atom" siyosati doirasida kuchli energetika infratuzilmasini shakllantira boshladi.

Bu davrga kelib, Yaponiya kompaniyalari, xususan Toshiba Co., Ltd., Hitachi Co., Ltd. kabi sanoat gigantlari engil suv reaktorlari ishlab chiqishni o'zlashtirdi. 1975-yilda esa mavjud stansiyalarning holatini yaxshilash va takomillashtirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqildi. Bu dasturlar 1985-yilga kelib, mamlakatning atom energetikasi tarmog'ini yanada kuchaytirib, quvvatni 1300–1400 MVt gacha oshirishni, shuningdek, reaktorlarni modernizatsiya qilishni nazarda tutgan edi.

Siyosat natijalari o'z samarasini berdi: 2011-yilga kelib, Yaponiya 53 ta yadro reaktoriga ega bo'lib, mamlakat energiya ehtiyojining 30% dan ortig'ini yadro elektr stansiyalari orqali qondiradigan darajaga yetdi. Bu ko'rsatkich Yaponiya uchun energiya mustaqilligi yo'lida katta yutuq hisoblanar edi.

Biroq, 2011-yil 11-mart kuni yuz bergan kuchli zilzila va uning ortidan kelgan sunami "Fukushima-1" atom elektr stansiyasida katta falokatni yuzaga keltirdi. Natijada yadro reaktorlaridan radioaktiv moddalarning atrof-muhitga tarqalishi sodir bo'ldi. Stansiya atrofidagi 80 mingdan ortiq aholining evakuatsiya qilinishi va mamlakat hududining 3% radioaktiv ifloslanish xavfi ostida qolishi Yaponiya tarixida chuqur iz qoldirdi.

Ushbu fojia yadro energetikasiga global miqyosda salbiy munosabatning kuchayishiga sabab bo'ldi. Yaponiya ichkarisida esa atom energiyasidan voz kechish talab qilgan norozilik to'liqlari vujudga keldi. 2012-yilga kelib, mamlakatdagi aksariyat yadro stansiyalari vaqtincha to'xtatildi.

Shunga qaramasdan, Yaponiya hukumatining yadro energetikasi sohasidagi siyosati o'sha davrda mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda va energiya ta'minotidagi risklarni kamaytirishda muhim rol o'ynadi. Energetika siyosatining evolyutsiyasi Yaponiya sanoatining, xususan, og'ir sanoat va ishlab chiqarish sohalarining jadal rivojlanishiga asos yaratdi.

Bugungi kunda Yaponiya "yashil iqtisodiyot" tamoyillariga asoslangan energiya siyosatini yo'lga qo'yishga intilmoqda. Xususan, qayta tiklanadigan energiya

manbalarini rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish va ekologik xavfsiz texnologiyalarga sarmoya kiritish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Yaponiyaning iqtisodiy rivojlanish tarixida baliq ovlash xo'jaligi muhim sanoat tarmog'i sifatida alohida o'rin tutadi. 1980-yillarda mamlakatda yiliga o'rtacha 2 million tonna baliq ovlanar edi, bu ko'rsatkich Yaponiya baliqchilik sanoatining dunyo miqyosidagi kuchli mavqeini aks ettirar edi. Biroq, 1990-yillar oxiriga kelib, dengizdagi baliqchilik ulushi mamlakat ichki baliq iste'molining 50 foizigacha qisqardi, bu esa baliq ovlash sanoatining barqarorligini ta'minlash uchun qo'shimcha choralar ko'rishni talab etdi.

Yaponiyaning baliq ovlash sanoati nafaqat mahalliy ehtiyojlarni qondirib kelgan, balki xalqaro savdo sohasida ham katta rol o'ynagan. Ayniqsa, Tokio markazidagi mashhur Tsukiji baliq bozori dunyodagi eng yirik yangi, muzlatilgan va qayta ishlangan dengiz mahsulotlari ulgurji markazlaridan biri sifatida tanilgan. Bundan tashqari, Kyushu provinsiyasi va Nagasaki shahri atrofida joylashgan 2000 dan ortiq baliq ovlash portlari Yaponiyaning baliqchilik infratuzilmasining mustahkam poydevorini tashkil etgan.

Yaponiya, shuningdek, baliq ovlash bo'yicha xalqaro miqyosda faol ishtirokchi hisoblanadi. Mamlakat Xalqaro Kit Ovi Komissiyasi a'zosi bo'lib, kitlarni ovlashni cheklash bo'yicha qator majburiyatlarni olgan. Biroq, Yaponiya Antarktida atrofidagi okeanlarda ilmiy tadqiqotlar nomi ostida minke kitlarini ovlashni davom ettirmoqda [4:14-16].

Mamlakatdagi eng yirik baliq ovlash kompaniyalari — Nippon Suisan Kaisha va Maruha Nichiro — har biri 10 mingdan ortiq ishchi bilan global miqyosda faoliyat yuritadi. Ushbu kompaniyalar Yaponiyaning baliq mahsulotlarini dunyo bozoriga yetkazib berish va eksport salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Baliq ovlash tarmog'i bilan bir qatorda, Yaponiya chorvachilik sohasida ham muhim yutuqlarga erishgan. Asosan Ikkinchi jahon urushidan so'ng jadal rivojlangan chorvachilik, o'ziga xos xususiyatga ega: u asosan import qilingan yem-xashak, xususan, makkajo'xori mahsulotlariga tayangan holda shakllangan. Bu esa Yaponiya iqtisodiyotining resurslarga nisbatan tashqi qaramligini yana bir bor ko'rsatadi.

Chorvachilikning asosiy markazi sifatida Xokkaydo oroli ajralib turadi. Shimoliy hududlardagi keng yaylovlar va sovuq iqlim sharoiti qoramol yetishtirish uchun qulay imkoniyatlar yaratdi. Xususan, Yaponiya qoramollarining qariyb yarmi sut ishlab chiqarish maqsadida parvarish qilinadigan sog'in sigirlardan iborat.

Biroq, Yaponiya chorvachilik sanoati ham import qilingan yem resurslariga qaramlik, ekin maydonlarining qisqarishi va ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi

kabi muammolar bilan yuzlashmoqda. Shu sababli mamlakat qishloq xo'jaligida o'z-o'zini ta'minlash darajasi sezilarli darajada past bo'lib qolmoqda.

So'nggi yillarda Yaponiya hukumati ekologik toza hududlarni rivojlantirish va qishloq joylarini turistik bazalarga aylantirish bo'yicha keng ko'lamli dasturlarni amalga oshirmoqda. Xususan, Tinch okeani mintaqasidagi demografik va ekologik muammolarni yumshatish maqsadida, ilm-fan va yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish markazlari — texnopolislar — qurilmoqda. Ana shunday loyihalardan biri, Xokkaydo orolida qurilgan dunyodagi eng uzun "Seykan" temir yo'li bo'lib, u quruqlik va orollarni bog'laydigan innovatsion infratuzilmaning yorqin namunasi sifatida diqqatga sazovordir [5].

2012-yil 26-dekabr kuni Shinzo Abe ikkinchi bor Yaponiya Bosh vaziri etib tayinlandi. Uning birinchi boshqaruv davri 2006–2007 yillarda bo'lgan bo'lsa-da, aynan 2012-yildagi qayta saylanishidan keyin u mamlakat iqtisodiyotini 20 yillik turg'unlik va pasayishdan chiqarish uchun qat'iy va keng qamrovli islohotlarni boshlab berdi. Ushbu islohotlar siyosati "Abenomiks" deb atalib, uch asosiy "o'q" — kuchli pul-kredit siyosati, keng moliyaviy siyosat va tizimli islohotlar tamoyillariga tayangan.

Birinchi o'q — keng qamrovli pul-kredit siyosati orqali Abe Yaponiya Bankiga miqdoriy yumshatish siyosatini joriy etishni buyurdi. Bu chora iyena kursining pasayishiga olib keldi: 2012-yilda 1 dollar 76,88 iyena bo'lsa, 2013-yil may oyiga kelib, bu ko'rsatkich 120,18 iyenagacha ko'tarildi. Natijada, iyena qiymatining pasayishi eksport mahsulotlarini xalqaro bozorda raqobatbardosh qilishni ko'zda tutdi [6].

Biroq kutilgan natijalar to'liq amalga oshmadi. Ba'zi yapon kompaniyalari eksport narxlarini pasaytirmasdan, ortgan daromadni o'z ichki foydalariga o'zlashtirib oldilar. Ayrim kompaniyalar esa ishlab chiqarishni xorijga, jumladan, Amerika Qo'shma Shtatlariga ko'chirishgani sababli, iyenaning qadrsizlanishi ularning raqobatbardoshligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmadi. Natijada, import xarajatlari oshib, oddiy yapon iste'molchilari narxlarning ko'tarilishi oqibatida zarar ko'rdi.

Ikkinchi o'q — moliyaviy siyosat orqali Abe hukumat infratuzilma xarajatlarini keskin oshirdi. 2014-yilda Yaponiya qarzining yalpi ichki mahsulotga nisbatan 225 foizga yetishi fonida, iste'mol solig'i oshirilgan bo'lsa-da, kutilgan iqtisodiy faollik ro'y bermadi. Aksincha, iste'molchilarning xarajatlari qisqarib, iqtisodiyot qisqa muddatda yana turg'unlikka yuz tutdi. 2016-yilda hukumat infratuzilmani rivojlantirish va iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash uchun 276 milliard dollarlik yangi moliyaviy paket ajratdi. Bunga magnit levitatsiyali (maglev) tezyurar poyezdlar qurilishi kabi yirik loyihalar ham kiradi [7].

Uchinchi o‘q — tizimli islohotlar esa Yaponiya qishloq xo‘jaligi sektorining modernizatsiyasini o‘z ichiga oldi. Abe qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga tariflarni kamaytirish, mayda yer uchastkalarini yiriklashtirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni maqsad qilib qo‘ydi. Bu jarayonda, uzoq yillar davomida kuchli guruch lobbilari sifatida tanilgan JA-Zenchu — Qishloq xo‘jaligi kooperativlarining Markaziy Ittifoqi o‘z vakolatlarini qisqartirishga rozi bo‘ldi, bu esa hukumatga zamonaviy qishloq xo‘jaligi usullarini keng joriy etish imkonini berdi [8].

Shuningdek, Yaponiya Trans-Tinch Okeani Hamkorligi (TTP) kabi yirik xalqaro savdo bitimlarida ham faol ishtirok etdi. Bu mamlakatning global iqtisodiyotga yanada faol integratsiyalashuviga xizmat qildi.

Shu tarzda, "Abenomiks" siyosati Yaponiya iqtisodiyotida muhim siljishlar yaratdi, biroq uni amalga oshirishda yuzaga kelgan muammolar va cheklovlar tufayli ba'zi maqsadlar to‘liq amalga oshmadi. Shunga qaramasdan, u milliy iqtisodiy tuzilmaning yangilanishiga va innovatsion rivojlanish uchun poydevor yaratilishiga kuchli turtki berdi.

Sharqiy Osiyoning yetakchi iqtisodiyoti bo‘lgan Yaponiya taraqqiyotida XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida yuzaga kelgan tizimli omillar alohida o‘rin tutadi. Iqtisodiy rivojlanish jarayonida mamlakat o‘ziga xos ichki tizim va tashqi aloqalarning murakkab tarmog‘ini shakllantirgan bo‘lsa-da, ushbu tizimning ayrim tarkibiy unsurlari vaqt o‘tishi bilan iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini susaytiruvchi omillarga aylangan.

Birinchi muhim omil — keiretsu tizimi bo‘lib, u ishlab chiqaruvchilar, yetkazib beruvchilar va distribyutorlar o‘rtasidagi qattiq iqtisodiy bog‘liqlik asosida shakllangan. Bu tizim Yaponiya iqtisodiyotida monopolistik boshqaruvning kuchayishiga va erkin raqobat muhitining cheklanishiga olib keldi. Natijada, innovatsion tadbirkorlarning bozorga kirishi qiyinlashdi va bevosita xorijiy investitsiyalarning oqimi ham cheklangan holda qoldi.

Ikkinchi omil sifatida umrbod bandlik tizimini ko‘rsatish mumkin. Traditsiyaviy tarzda yapon kompaniyalari bitiruvchilarni ishga olib, ularni nafaqaga chiqqunicha saqlash siyosatini olib borgan edi. Biroq, 1990-yillardagi iqtisodiy inqiroz va globallashuv bosimi ostida ushbu tizim o‘z samarasini yo‘qotdi. 2014-yilga kelib, kompaniyalar faqat 8,8 foiz bitiruvchilarga bunday kafolatni bera olgan, ammo 45–65 yoshdagi 25 million ishchi eskirgan malakalar bilan iqtisodiy tizimga og‘ir yuk bo‘lib qoldi.

Uchinchi omil — aholining keskin keksayib borishi. Mehnat resurslarining qisqarishi va nafaqa to‘lovlarining oshishi, yangi ishchi kuchi oqimining cheklangani

bilan birgalikda ichki iste'mol bozorining torayishiga olib keldi. Bu esa, milliy iqtisodiyotda jiddiy ichki izolyatsiyaga sabab bo'ldi [9].

To'rtinchi omil — yenaning uzoq muddatli past foiz stavkalari natijasida vujudga kelgan savdo-sotiq strategiyasi. Bu holat investorlarning arzon kredit olishiga va xorijiy valyutalarga investitsiya qilishiga imkon bergan bo'lsa-da, ichki bozorni zaiflashtirdi va inflyatsion bosimni oshirdi. 2014-yilda global neft narxining pasayishi bu xavfni qisqa muddatga yumshatdi, ammo tizimli xavf saqlanib qoldi.

Beshinchi muammo — Yaponiyaning rekord darajadagi davlat qarzi. Mamlakat davlat qarzining yalpi ichki mahsulotga (YaIM) nisbati dunyoda eng yuqori ko'rsatkichlardan biriga ega bo'lib, bu fiskal barqarorlik uchun doimiy tahdid yaratmoqda. Yaponiya Bankining hukumat obligatsiyalari bozoridagi ustun roli esa, ushbu tahdidni bir muddat yumshatib turmoqda.

Oltinchi omil — AQSh qarzlarining yirik ulushiga egalik. 2015–2017 yillarda Yaponiya qisqa muddat ichida AQShning eng yirik xorijiy kreditoriga aylanib, iyenani sun'iy ravishda past kursda ushlab turishga intildi. Bu eksportni rag'batlantirishga xizmat qildi, biroq umumiy iqtisodiy risklarni ham oshirdi.

Yettinchi va nihoyat, muhim omil — oziq-ovqat mahsulotlari importiga qaramlik. Yaponiya o'z qishloq xo'jaligi imkoniyatlarini cheklangan holda saqlab qolgan bo'lib, oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha tashqi ta'minotga kuchli darajada bog'liqdir. Bu esa global oziq-ovqat bozorlaridagi har qanday o'zgarishga nisbatan iqtisodiy zaiflikni oshirmoqda.

Mazkur tizimli omillar Yaponiya iqtisodiyotining XX asr oxiridan XXI asr boshigacha bo'lgan rivojlanish sur'atlarini sekinlashtirgan, "yo'qolgan o'n yillik" (Lost Decade) fenomenini yuzaga keltirgan va natijada mamlakat iqtisodiy modeli tubdan islohotlar talab qiladigan bosqichga olib kelgan.

XX asr oxiri Yaponiya iqtisodiy tarixida "yo'qolgan o'n yillik" (Lost Decade) deb ataluvchi davr bilan yodga olinadi. 1990-yil yanvar oyida Yaponiyaning fond bozori keskin quladi, natijada mol-mulk qiymati 87 foizga pasaydi. Bunday inqiroz mamlakat iqtisodiy tizimining o'ta haddan tashqari ko'p kreditlash va ko'chmas mulk pufagi sharoitida shakllangan zaifligini ochib berdi.

1995-yilga kelib Yaponiya Markaziy banki foiz stavkalarini tarixiy minimum darajasiga — 0,5 foizgacha tushirdi. Biroq bu choralar iqtisodiy tiklanishni ta'minlamadi. Aslida, qarzдорlik yukini yengillatish uchun mo'ljallangan past stavkalar odamlarga mavjud qarzlarni qayta moliyalash imkonini berdi, biroq yangi investitsiyalarni va ichki iste'molni rag'batlantira olmadi [10].

Shu tariqa, Yaponiyaning moliyaviy sektori uzoq muddat davomida "zombilashgan" — ya'ni, kredit berishga qodir bo'lmagan, ammo rasmiy bankrotlikka

uchramagan moliyaviy institutlar bilan to'ldi. Hukumat tomonidan amalga oshirilgan fiskal siyosatlar, xususan, avtomobil yo'llari va boshqa infratuzilma obyektlarining qurilishi uchun yo'naltirilgan mablag'lar, qarz darajasining yanada oshishiga olib keldi. Natijada, davlat qarzi YaIMga nisbatan tarixiy yuqori ko'rsatkichlarga yetdi.

2005-yilga kelib Yaponiya kompaniyalari o'z balanslarini sog'lomlashtira boshladi va iqtisodiyot asta-sekin tiklanish belgilari namoyon etdi. 2007-yilda iqtisodiy o'sish 2,1 foiz, 2008-yilning birinchi choragida esa 3,2 foiz darajasida qayd etildi. Biroq global moliyaviy inqiroz tufayli 2008-yil oxiriga kelib, Yaponiya yalpi ichki mahsuloti 12,9 foizga qisqardi. Bu 1974-yilgi neft inqirozidan keyingi eng keskin iqtisodiy pasayish bo'ldi.

Yaponiya iqtisodiy tanazzuli shok ta'siri ko'rsatdi. O'sish sur'atlari uchinchi chorakda 2,4 foizdan to'rtinchi chorakda 0,1 foizgacha keskin pasaydi. Bu pasayish, eng avvalo, iste'molchi elektronika va avtomobil sanoatida sotuvlar kamayishi bilan bog'liq bo'lib, iqtisodiyotning 16 foizini tashkil etgan asosiy tarmoqlarga jiddiy zarba berdi.

2002–2008-yillar oralig'ida Yaponiyada iqtisodiy tiklanish sezilarli ko'rinishga ega bo'lsa-da, bu jarayon asosan eksportga tayanib amalga oshirildi. Ichki iste'mol va investitsiya jarayonlari esa sustlik bilan rivojlandi.

XXI asr boshidagi Yaponiya iqtisodiy tajribasi shuni ko'rsatadiki, kuchli tashqi savdo aloqalari va ilg'or texnologik salohiyat ham o'z-o'zidan barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun yetarli emas. Iqtisodiy barqarorlik va uzluksiz o'sish uchun ichki iqtisodiy tizimda strukturaviy islohotlar, moliyaviy sektorni sog'lomlashtirish va innovatsiyalarni doimiy ravishda rivojlantirish zarur ekani yaqqol namoyon bo'ldi.

XULOSA.

Zamonaviy Yaponiya rivojlanishi tarixiy jarayonlarning, tabiat sharoiti va iqtisodiy zarurlarning murakkab uyg'unligi natijasidir. Yer va suv resurslarining cheklanganligi, tog'li hududlarning ko'pligi, tez-tez sodir bo'ladigan zilzilalar va sunamilar yapon xalqini o'z tabiatiga moslashishga, mavjud resurslardan eng samarali va ehtiyotkorlik bilan foydalanishga majbur etdi. Shu tufayli Yaponiya agrar sohada intensiv yer ishlov berish tizimini rivojlantirdi, sanoatda esa yuqori texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarga asoslandi.

Qishloq xo'jaligi yerlari qismligiga qaramay, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida sholi va sabzavotchilikni yuqori darajada rivojlantirishga erishdi. O'rmon xo'jaligi ham yer resurslarini muhofaza qilish va iqtisodiy faoliyatni diversifikatsiya qilishda muhim rol o'ynadi.

Sanoatda esa, resurs yetishmovchiligi sharoitida energiya tejamkor texnologiyalar va innovatsiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Atom

energetikasi dastlab energiya mustaqilligini ta'minlash uchun strategik yo'nalish sifatida tanlansa-da, Fukushima-1 avariyasi natijasida ekologik xavfsizlikka alohida e'tibor berishga olib keldi.

Natijada, Yaponiya o'z tarixiy rivojlanishida an'ana va innovatsiyani uyg'unlashtirish, yer va suv kabi asosiy tabiiy resurslarga nisbatan mas'uliyatli va oqilona yondashish orqali o'zining iqtisodiy, ilmiy va madaniy salohiyatini shakllantirdi. Bu tajriba bugungi global ekologik va iqtisodiy muammolar sharoitida ham dolzarbligicha qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Vavilov N.I., Krasnov A.N. "Пять континентов". Moskva: Mysl', 1987. – 72 b.
2. Hentz X. Tashlab qo'yilgan yerlar, korporativ dehqonchilik va qishloq xo'jaligi yerlari: Yaponiyada qishloq xo'jaligi yerlarini tartibga solish va qayta taqsimlash jarayonining mahalliy istiqboli. // Zamonaviy Yaponiya, 2017. – T. 29, №1. – B. 31–46.
3. Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Ma'ruzalar matni. – Nukus: 2015. – B. 60–61.
4. Yaponiya baliqchilik agentligi. Elektron manzil: www.maff.go.jp
5. "Yaponiyada Brink". The Wall Street Journal, 2014-yil 19-noyabr.
6. "Yaponiya iqtisodidagi kurashlardan ko'proq ogohlantiruvchi choralar ko'radi". The New York Times, 2016-yil 2-avgust.
7. "Abe ning uchinchi o'qi o'z belgisini topadi". The Wall Street Journal, 2015-yil 11-fevral.
8. Sayfullaev, B. D. (2023). UZBEKISTAN-INDIA: TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF LITERARY RELATIONS. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(09), 11-15.
9. Sayfullaev, B. (2021, November). From the history of cultural relations between Uzbekistan and India. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 57-60).
10. "Yaponiya prognozlash: islohotlarning sustligi". Stratfor Worldview, 2015-yil 30-sentabr.